

**“GO‘ZALLIK” KONSEPTI VA UNI VOQELANTIRUVCHI LUG‘AVIY
BIRLIKLAR LINGVOPOETIKASI**

Zulfiya Ma’rufova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

ORCID:0009-0006-1822-4151

Annotatsiya. Go‘zallik – estetik kategoriya bo‘lib, har bir xalqning go‘zallik haqida o‘z qarashlari, o‘lchovlari, etalonlari shakllangan. Bu qarashlar o‘z davrining milliy madaniyatida, badiiy asarlarida o‘z aksini topgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida go‘zallik, asosan, ayol siymosida talqin etilgan. Ushbu maqolada ayol obrazi bilan bog‘liq metaforik modellar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy matnlarda voqelantirilgan go‘zallik mezonlari, ularning lisoniy tus olishida vosita bo‘lgan turli lug‘aviy birliklarning poetik niyatni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: go‘zallik, konsept, model, ayol, metafora, hosila ma’no, konseptual maydon, lug‘aviy birlik, kognitiv mexanizmi, sub’ektiv baho, etalon.

Annotation. Beauty is an aesthetic category, in which each people's own views, measurements, Etalons about beauty are formed. These views are reflected in the national culture of its time, in the works of fiction of the topgp. In Uzbek classical literature, beauty is interpreted mainly in the female figure. This article reflects on metaphorical models associated with the image of a woman. Also, the criteria for beauty, which are realized in artistic texts, the importance of various dictionary units, which are tools in their linguistic transformation, in bringing poetic intention to the surface, are subject to analysis.

Keywords: beauty, concept, model, woman, metaphor, derivative meaning, conceptual field, dictionary unit, cognitive mechanism, subjective assessment, benchmark.

Tilimizda ijobiy baho ifodalovchi so‘zlar salbiy semaga ega so‘zlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. G‘. Qambarov o‘zining baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida “chiroyli” so‘zini ifodalashi mumkin bo‘lgan lug‘aviy birlik 50 dan ortiq bo‘lishiga qaramay, “xunuk” so‘zi sinonimiyasi 20 dan ortmasligini ma’lum qiladi¹. O‘zbek mumtoz badiiy

¹ Qarang: Nazarova D. Belgi bildiruvchi leksemalarning aksiologik xususiyatlariga doir // Onlayn xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Andijon, 2020. – B.68. <http://conference.adu.uz..>

matnlarida “go‘zallik” konsepti, asosan, ayol timsolida verballashar ekan, u “ishq” tushunchasi asosida voqelanadi. Ayol siymosidagi go‘zallikning mukammal andazasini yaratish uchun bir qator metaforik va ramziy timsollar, an’anaviy va individual o‘xshatishlar jamlanmasi vujudga kelgan. Navoiy she’riyatida ayol go‘zalligini tasvirlashda *oy, quyosh, mahvash, pari, nozanin, janon, gulruh, pari paykar, sarvu gulandom, ofatijon, sanam, dildor, nigorim, bahorim, shahsuvorim, mohim* kabi o‘nlab murojaat shakllari va sifatlashlar qo‘llaniladi.

I.A.Tarasovaning fikricha, kognitiv poetikada badiiy asarni funksiyalashtiruvchi siklning turli bosqichlari mavjud: muallif (individual konseptosfera) – badiiy reallik (matnning konseptual tarkibi) – o‘quvchi (qabul qilishning konseptual mexanizmlari), shuningdek, ular orasidagi o‘zaro munosabat. Masalaga zanjirning qaysi halqasi nuqtayi nazaridan qarash tadqiqot metodlari va aniq maqsadlar orqali belgilanadi. I.A.Tarasova badiiy konseptga individual-muallif (psixik hosila sifatida) va milliy, adabiy an’analar hosilasi sifatidagi yondashuvni taklif etadi². D.Xudoyberganova fikricha, badiiy konsept har ikkala xususiyatni ham o‘zida mujassam etadi³. Demak, muallif ma’lum bir konsept haqida o‘z individual konseptosferasiga ega. Bu maydon uning mavjud bilimlari, hayotiy tajribasi, milliy-etnik xususiyatidan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Sharq adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan tasavvufiy she’riyatda insonning barcha estetik did va qarashlari, hissiy kechinmalari, go‘zallikka nisbatan **subyektiv** munosabati Ollohga bo‘lgan mehr-muhabbat asosida vujudga kelgan va, asosan, Ayol (ma’shuqa) siymosida talqin etilgan. Olloh esa go‘zaldir.

Sharqona poetikaning muhim xususiyati shundaki, unda ayol go‘zalligining o‘zidan ko‘ra tasviriga, badiiy so‘z san’atining jilosiga, poetik obraz yaratishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Arastu fikricha, “Shoir hayotda qanday bo‘lsa, shunday tasvirlamaydi, degan ta’naga e’tiroz bildirib shuni aytish mumkinki, shoir hayotda qanday bo‘lish kerakligini (ham) tasvirlaydi”⁴. Shu sababli mumtoz tasvirlarda mubolag‘a kuchli bo‘ladi. **Subyektning** go‘zallik haqidagi tasavvuri va talabini obyektning insoniy sifatlari qoniqtirmaydi, uni ilohiy bir xilqat darajasiga ko‘taradi, hayotiylikdan chekintiradi. Mumtoz matnlardagi tasvirlarda mubolag‘aning *ig‘roq* va *g‘uluv* turlari keng qo‘llaniladi.

Keyingi yillarda til birliklarining kognitiv jihatiga katta e’tibor qaratilayotganini yuqorida aytib o‘tdik. Bunday izlanishlarlarda ko‘chma ma’noli so‘zlar mavjud til birliklarining inson tomonidan qayta anglanishi natijasida paydo bo‘layotgani ilmiy asoslab berildi. Ko‘chma ma’noli so‘zlar “... inson olamni idrok etish jarayonida egallagan bilimiga tayanadi, ya’ni vaziyatni baholash, qiyoslash orqali tafakkurida

² Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте (На материале поэзии Г.Иванова и И.Анненского). – Автореф. дисс. ... д-ра филол.наук. – Саратов, 2004. – С.4.

³ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.43.

⁴ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б.59.

mujassamlaydi, so'ng lisoniy "libos" kiydiradi. Bunday holatlar kognitiv mexanizmlar orqali amalga oshiriladi"⁵. Bu jarayonning oxirgi bosqichida lisoniy shakliga ega bo'ladi. "Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi"⁶. J.Jeyns mavhum konseptlar muayyan metaforalar yordamida shakllanishini ta'kidlab, noma'lum va notanish predmetlarni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan obrazni tanlay olish o'rinli metaforani yuzaga keltirishini ta'kidlagan edi⁷. Metafora – bilishning kuchli vositasi bo'lib, unda nutq egasiga ma'lum bo'lgan eski tushuncha yangisi bilan qiyoslanadi.

Metafora antropometrik xarakterga ega: metafora inson tafakkurining qay darajaga etganligi belgisi hamdir. Metafora mavhum narsalarni tushunarli va engil his etiladigan qilib qo'yadi. Yuqoridagilarga asoslanib, "kognitiv metafora – shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo'lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim strukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir"⁸, deyish mumkin. Konseptlar orasidagi metaforik va metonimik strukturalar obrazli mexanizmlar asosida shakllanadi. Metaforik model negizida muayyan empirik kuzatuvdagi makon haqidagi tasavurning boshqa bir makonga ko'chirilishi yotadi, bu ko'proq "ko'rinmas olam"ga tegishli mavhum makondir. Metonimik model negizida esa mantiqiy yaqinlik munosabatlari yotadi. O'zbek mumtoz she'riyatida go'zallikni ifodalashda metaforaning o'rni beqiyosdir.

"J.Lakoff va M.Jonson metaforik hosila ma'noning paydo bo'lishida ikki kognitiv maydon, ya'ni *manba maydoni* hamda *maqsad maydoni* ishtirok etishini ko'rsatishadi. Manba maydoni insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishidagi aniq bilimlar yig'indisidir. Maqsad maydoni esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilimdir"⁹. Ya'ni, metafora orqali ma'no ko'chishi sodir bo'lganda inson tilning lug'at tarkibidagi mavjud birliklardan va egallagan bilimidan foydalanadi. Ushbu holat *manba maydoni* vazifasini o'taydi, *maqsad maydoni* esa inson tafakkurida tayyor materiallardan hosil qilinadigan yangi hosila ma'nodir.

Ul orazu ruxsor ila zulfi, engi lola,

Oydinda yotur gul uza bir hindu uzola (Lutfiy, "Ul orazu ruxsor ila").

Baytni kognitiv maydonlar doirasida shunday tahlil qilish mumkin:

| <i>Manba maydoni</i> | | <i>Maqsad maydoni</i> | <i>Ko'chirilgan belgi</i> |
|----------------------|--------------|-----------------------|---------------------------|
| <i>Fazo</i> | <i>oydin</i> | <i>oraz (yuz)</i> | <i>oq rang</i> |
| <i>Inson</i> | <i>hindu</i> | <i>zulf</i> | <i>qora rang</i> |
| <i>o'simlik</i> | <i>lola</i> | <i>eng (yonoq)</i> | <i>qizil rang</i> |

⁵ Юлдашев А.Г. Кўчма маъноли сўзларда кognитив механизmlарнинг ўрни // "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал journal.fledu.uz., № 3/2019. – Б.58. Мурожаат санаси: 25.10.2021.

⁶ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010. – Б.94.

⁷ Қаранг: Худойбергана Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.47.

⁸ Худойбергана Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.49.

⁹ Юлдашев А.Г. Кўчма маъноли сўзларда кognитив механизmlарнинг ўрни // "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал. journal.fledu.uz. – № 3/2019. – Б.60.

V.Z. Demyankov ta'rificha, “metafora asosida ma'nosi (mazmuni) ko'chgan birliklar “kognitiv aysberg”ning yuza qismi bo'lib, uning asosiy qismi bizning lisoniy ongimiz tubida yashirin holda mavjud bo'ladi”¹⁰. Bu hodisani A.Nurmonov shunday ta'riflaydi: “Har bir leksemaning mazmuniy mundarijasi birlashtiruvchi va farqlovchi semalar munosabatidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema bu leksemaning muayayn leksik-semantik guruhga mansubligini, farqlovchi sema esa ma'lum leksik semantik guruh tarkibidagi ushbu leksemaning o'ziga xosligini ifodalaydi”¹¹. Masalan:

Hijron kechasi charxi falakka etar, ey moh,

Ohi saharim,xoh inon, xoh inonma (Lutfiy, “*Sensan sevarim*”)

baytida yor oyga qiyoslanadi, oydagi “go'zal”, “o'ziga tortuvchi”, “*etib bo'lmas*” kabi belgilar birlashtiruvchi semalardir. Oyga xos belgilarning subyekt ongidagi go'zal yuz bilan assotsiatsiyaga kirishmaydigan jihatlari (fizik va astronomik xususiyatlari) esa farqlovchi semalar bo'lib, ong tubida yashirincha qoladi. Kognitiv maydon nuqtayi nazaridan qaralsa, manba maydoni - **osmon jismi** (oy), maqsad maydoni - **inson** (ayol).

Qomating tubiy niholidur, labing kavsar suvi,

Yuzung ul huri bihishtiy, tutti bu oliy maqom (Lutfiy, “*Qomating tubiy niholidur...*”) baytida nutq egasi – shoir (oshiq, subyekt) *tubiy niholi, kavsar suvi, behisht huri* haqida ma'lum darajada bilim va tasavvurga ega. Tubiy niholi (jannat daraxti)ning *tik qomati*, *kavsar suvining jonbaxsh va mazaliligi*, jannat hurlarining *go'zalligi* kabi tanish belgilar yorga xos belgilar bilan tafakkurda assotsiatsiyalashadi va yangi nomlarni paydo qiladi. Ya'ni pragmalingvistik jarayon vositasida metaforalarda shakl va maza-ta'm, xususiyat jihatdan go'zallik uzvlari verballashadi.

Sh.T.Maxmaraimovaning fikricha, “antropologik fanlar sathida inson va u bilan bog'liq mohiyatni, nazarimizda, biror hodisa metaforachalik kognitiv teran va ko'lamdor tarzda tushuntira olmaydi, uning mexanizmi to'qima tabiatga ega bo'ladi va nutq egasidan ma'lum darajada ijodkorlikni talab qiladi”¹². Demak, metafora tafakkur va borliqni anglash vositasi, u fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi va milliy-madaniy dunyoqarash bilan sug'orilgan bo'ladi.

K.V.Sboroshenko rus va italyan poeziyasidagi go'zallik konseptini tahlil qilar ekan, ayol go'zalligini ifodalashning 11 ta metaforik modelini ko'rsatadi¹³. Ularning deyarli barchasi universal baho modellari bo'lib, o'zbek she'riyatiga ham tatbiq etish mumkin. Masalan:

¹⁰ Қаранг: Худойберганова Д. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.50.

¹¹ Нурмонов А. Лексеманинг мазмуний мундарижаси. Фан, таълим, жамият: тўплам. II чиқиш. – Андижон, 2007. – Б.10-11.

¹² Махмараймова Ш.Т. “Инсон” концепти ва унинг муаллиф реалиясидаги ифодаси. Тилшуносликдаги замонавий йўналишлар: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги илмий-амалий онлайн конференция материаллари. – Андижон, 2020. – Б.7.

¹³ Сборошенко К.В. Метафорическая репрезентация концепта «Красота» в современной поэзии: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Челябинск, 2009. – С.17.

1. **Ayol – bu ilohiy xilqat** (“женщина – это божество”): *Ey pari-paykar sanam, nasli odamdimusen, Yo malak, yo hur, yo ruhi mujassamdimusen?* (Atoyı).

2. **Ayol – bu o‘simlik** (“женщина – это растение”): *Sen gulsenu, men haqir bulbuldurmen, Sen shu‘lasen, ul shu‘lag‘a kuldurmen. Nisbat yo‘qtur, deb ijtinob aylamakim, Shahmen elga, vale senga quldurmen* (Bobur).

3. **Ayol – bu yorug‘lik** (“женщина – это свет”): *Yo‘qtur yuzung qoshinda quyoshning zarofati, Kunduzgi sham‘ningki ne bo‘lgay latofati?* (Lutfiy) *Orazin yopqach ko‘zumdin sochilur har lahza yosh, O‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh* (Navoiy).

4. **Ayol – bu nafosat** (“женщина – это нежность”): *Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur, G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur* (Atoyı).

5. **Ayol – bu osmon** (“женщина – это небо”): *Sakkokiy ul oy manzilina xud eta bilmas, Sen etsang agar anda, sabo bizni unutm* (Sakkokiy).

6. **Ayol – bu zamin** (“женщина – это земля”): *Ko‘kka boqdim, o‘t tutashdi jonim aro... Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror! Hayrat ichra o‘ldirgusi meni samo, Ona zamin, ucha qolay, qo‘yib yubor!* (Usmon Azim).

7. **Ayol – bu bahor** (“женщина – это весна”): *Ne kun o‘lg‘ayki, nigorim kelgay, Bog‘i umrumda bahorim kelgay. Umr bog‘ida bahor uldurkim, Sarvqad lolauzorim kelgay* (Navoiy).

8. **Ayol – bu olov** (“женщина – это огонь”): *Chun bag‘irdin so‘rdum, aytur: Andin o‘t tushti manga, Kim, ko‘ngulga sho‘la soldi ishq barqi ofati* (Navoiy).

9. **Ayol – bu hayot** (“женщина – это жизнь”): *Tabassum qilsa la‘ling jon bag‘ishlar, Magar Isoyi Ruhulloh sen-sen* (Atoyı).

10. **Ayol – bu musiqa, qo‘shiq** (“женщина – это музыка, песня”):

Tashnaman, maysanu ichib bo‘lmaydi,

Qo‘lingdan tutib yo kechib bo‘lmaydi.

Mening qo‘shig‘imsan,

Kengligim mening,

O‘zimdanda boshqasi... hech kim bilmaydi (Jontemir).

1. **Ayol – bu qimmatbaho boylik** (“женщина – это драгоценность”):

Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma (Lutfiy).

Ko‘rsatilgan modellar qatoriga o‘zbek lingvopoetikasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, quyidagilarni ham qo‘shimcha qilish mumkin:

12. **“Ayol – bu shirinlik”** (shakar, asal, novvot):

Ul og‘izdur yo asalning arisi gulbarg uza

Nish ila nozuk nishon qildi-yu, to‘ldirdi asal (Lutfiy).

13. **“Ayol – bu qush”** (tovus):

Ey husnu malohat chamani sahnida tovus,

Ko‘zumdin ucharsen, netayin, bolu parim yo‘q (Atoyı).

14. **“Ayol – bu hukmdor”** (sulton, husn shohi):

*Sakkokiyning azobi raqib bo'ldi ko'p, vale,
Yolg'uz jonig'a oz qil, ey **sulton**, azobni (Sakkokiy).
Lutfiy senga qul buldi, ayo husn eli **shohi**,
Ye barcha xaloyiq **shohi**, **sultonimidursan?** (Lutfiy).*

15. “Ayol – bu poklik”

*Ul ilikkim, suvdin ortiqtur, yumas oni suda,
Balki suvni **pok** bo'lsun deb iliki birla yur (Atoyi).*

16. “Ayol – bu shifo beruvchi”

*Iso damining bor asari har nafasingda,
Jon dardina, ey **xulqi davo**, bizni unutm (Sakkokiy).*

Lingvopoetikada metaforik ifodani yuzaga chiqarishda belgi muhim rol o'ynaydi. Mumtoz adabiyotimizda yor go'zalligini tasvirlash uchun belgi bildiruvchi leksemalardan unumli foydalanilgan. Har bir verbalizatsiya jarayoni o'zining milliy-madaniy qadriyatlari va obrazlariga ega. Matnning lug'at va grammatik tarkibi o'quvchi (tinglovchi)ning ongida ma'lum freymlarni uyg'otadi.

Mumtoz adabiyotda tana a'zolarini kognitiv metaforalar vositasida bo'yoqdor qilib tasvirlash orqali go'zallik komponentlari voqelantiriladi. Bunda qimmatbaho tosh nomlari (sadaf, dur, inju, feruza, yoqut, la'l), libos nomlari (qabo, burqa', pirohan, ro'mol), gastronomik birliklar (shakar, asal, suv, gulob, boda, may), shaxs otlari (raqib, oshiq, yor, gado, darvesh, podshoh, qul, jallod, kofir, habash, hindu), samoviy jismlar (oy, quyosh, yulduzlar, sayyoralar), narsa-buyum nomlari (sham, mushk, zunnor, qalam, jorub, novak, o'q-yoy), joy nomlari (Yaman, Chin, Xo'jand, Turkiston, Hindi, Kan'on, cho'l, chamanzor, bog'), diniy-afsonaviy birliklar (malak, hur, zohid, pari) va arabiy harflarni mohirona qo'llash, o'simlik nomini bildiruvchi leksemalar (fitonimlar), jonivor nomini bildiruvchi leksemalar (zoonimlar) vositasida muayyan estetik baho komponentlari uyg'unlashtirilib, go'zallik konsepti lisoniy voqelantiriladi.

Qimmatbaho toshlar. G'azallarda *oltin*, *kumush* leksemalari rang jihatdan yuz va badan tusini ifodalab, har biriga alohida ma'no yuklatiladi:

*Ishq o'tida Lutfiy yuzi **oltunni** yoshurdi,
Ey **siymbarim**, xoh inon, xoh inonma (Lutfiy, “Sensan sevarim”).*

Baytdagi *oltin* leksemasi metaforik ko'chim natijasida oshiq yuzining rangini ifodalayotganini oltin metali haqida tasavvurga ega bo'lgan har qanday odam uchun tushunarli. Xasta odam yuzidagi sariqlik bilan oltinning sariqlik belgisi subyekt ongida o'zaro assotsiativ munosabat hosil qiladi. *Yoshurdi* so'zi rang darajasini yanada kuchaytirib, yor ishqida rangi sarg'ish tusga kirgan oshiqning yuzi oltindan-da sariqroq ekanligiga ishora qiladi. *Siymbar* so'zi “kumush badan, oq badan” ma'nosini anglatadi¹⁴. Kumushdagi oqlik belgisi yor badanining oqlik belgisi bilan bitta konseptual maydon doirasida birlashib, shoir istagan hosila obraz – oq badanli yor

¹⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. 3-ж. – Тошкент: ФАН, 1983. – Б.75.

timsoli namoyon bo'ladi. Hosil qilingan metonimik birlik (*siymbar-kumush tan*) vositasida shoirning go'zallik, mukammallik haqidagi tasavvurlari reallashadi. *Kumush* leksemasi orqali tana rangining ifodalanishini quyidagi baytda ham kuzatish mumkin:

*Kumush bilaklaringizni eng ichra yoshurmang,
Kishining ilgi ochuq bo'lsa, benazir bo'lur* (Lutfiy, "Zamona ahli").

Kumush hamda *bilak leksemalarining* oqlik belgisi bilan uyg'unlashib, o'quvchi ko'z o'ngida *oppoq bilak* tasvirini paydo qiladi.

Shuningdek, mumtoz she'riyatda *aqiq, la'l, inju, sadaf, yoqut, dur* kabi qimmatbaho tosh nomlari ham go'zallikni tasvirlashga xizmat qilgan. Sakkokiy ijodida yuz sariqligi qahrabo orqali ifodalanadi:

*Boqib bir g'amzasi birla ko'zi yuz ming balo qildi,
Aqiqi ishvasi birla engimni qahrabo qildi.* (Sakkokiy, "Boqib bir...").

Ikki xil qimmatbaho tosh orqali ikki xil rang ifodasidan oshiq holi namoyon etiladi. Aqiqning qizil, qahraboning tillarang bo'lishini bilgan o'quvchi she'rdagi badiiy holatni aniq tasavvur qiladi. Labning aqiqqa qiyoslanishiga ikki belgi – qizillik va qimmatbaholik asos bo'ladi, keyingi metaforik strukturada esa rang (sariqlik) belgisi saqlanib, qadr-qiymat darajasi tushiriladi.

"Bir toshga ikkinchi toshdan ko'proq qiymat, baho berilishi birinchi toshni qadrlanishidan dalolat. Tabiatdagi *sadaf, yoqut* o'z funksiyasiga va qiymatiga ega bo'lsa-da, jamiyatda estetik qadriyat sifatida inson ongida qayta yaraladi"¹⁵. K.V.Sboroshenko ayolni qimmatbaho toshlar va foydali qazilma metallariga qiyoslashga asoslangan metaforik model rus va g'arb poetik tili uchun ham xos ekanligini ta'kidlaydi. Ammo ularda toshlarning rangi emas, qadr-qiymat darajasi e'tiborga olinadi¹⁶. Lutfiyning quyidagi baytida *la'l* orqali ifodalangan tasvirda *lab* va *qondagi* qizillik belgisi tutashtiriladi:

*La'liga boqsam bilurkim, ko'nglum ul yon tortadur,
Noz ila o'lturgali aytur: "Seni qon tortadur".*

La'l - 1) qizil rangli qimmatbaho tosh; 2) qip-qizil lab¹⁷. Lab uchun *la'l* manba maydoni vazifasini bajarar ekan, bunga *la'l*ning qizilligi va qimmatbaholigi asos bo'ladi. Baytning ikkinchi misrasida *lab* qizilligi endi *qon* qizilligi bilan assotsiatsiyalashadi. "Men yorning labiga boqsam, ko'nglim unga qarab tortadi, (qiz) meni nozi bilan o'ldirish uchun, seni qon tortyapti, deydi". Ya'ni: Agar labga intilib, yorga etmoqchi bo'lsang, jon berishingga to'g'ri keladi (*seni qon tortyapti*) degan

¹⁵ Раҳматова М.М. Гўзаллик концептининг бадий матнларда воқеланиши ва унинг концептуал таҳлили // БДУ илмий ахбороти, 2019/2(74). – Б.12.

¹⁶ Сборошенко К.В. Метафорическая репрезентация концепта «Красота» в современной поэзии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2009. – С.18.

¹⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. 3-ж. – Тошкент: ФАН, 1983. – Б.169.

mazmundan ilohiy ishqning yorqin namunasini ko'rish mumkin: Haqqa etish uchun jon bermoq kerak.

Ayrim hollarda qizillik belgisi yor labidan tashqari oshiqning ko'z yoshiga ham nisbat beriladi, labning qizilligi oshiq bag'rini qon qilib, ko'zidan la'lu marjon (qip-qizil qon) to'kishiga sabab bo'ladi:

Bag'ir qon qildi ernidinu bo'ldi,

Ko'zumda la'lu marjon pora-pora (Sakkokiy, "Ko'rub gultek yuzung...").

Ushbu baytda la'l va marjon toshlari rang (qizillik) va shakl (tomchi) belgisi bilan umumiy ma'no ifodalagan bo'lsa, Sakkokiyning boshqa misrasida la'l va gavhar toshi *qizil rang* va *ko'z gavhari* ma'nosida keladi:

Ul tishingu erningni ko'rub bir kularingda,

Bu ikki ko'zim la'lu guhar bahriyu koni (Sakkokiy, "Ey gul...").

Baytda shoir yor tishining oqligi va labining qizilligiga o'z ko'zidan oqqan qonning qizilligi va ko'z gavharining oqligini parallell holda keltiradi. Tabiiyki, bu tasvir g'azal mazmunini boyitishga va oshiq holatini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Ko'pgina tillarda *qizil* rang "chiroy" tushunchasini ifodalaydi va qizil rang tasvirlangan o'rinlarda go'zallik haqida so'z boradi. Masalan, "Xitoyda "qizil yurak" samimiy inson qalbini ifodalasa, fosiq va makkor odamning yuragi qora deb ko'rsatiladi... Ba'zi xalqlarda qizil rang isyon va kurash tushunchasini ham ifodalaydi"¹⁸.

Ayrim g'azallarda yor go'zalligi va unga bog'liq bo'lgan oshiq holati dinamik jarayonda beriladi:

Firoqing bo'tasi ichra tanimni sizg'irur har dam,

Yuzumni oltun etqoli g'amingni kimiyo qilma (Sakkokiy, "Qaro ko'z birla").

Firoq dardi oshiqqa azob beryapti. Xasta odamning yuzi sarg'ayishi hodisasi *metafora-gap* shaklidagi kognitiv mexanizm orqali verballashtiriladi. Ya'ni "kimyoviy hodisa orqali oltin paydo qilish" jarayonining obrazli tasvirida kimyoviy modda vazifasini *firoq* (*g'am*) bajarmoqda. *Oltin* leksemasi subyekt ongida avvaldan mavjud bo'lgan bilim sifatida **rang** bildiruvchi *manba maydoni* vazifasini bajaradi. Bu o'rinda maqsad maydoni – oshiq yuzidir. Chunki u sariqlik belgisi ostida paydo qilingan hosila ma'no sanaladi.

Kiyim (libos) nomlari. Mumtoz adabiyotda "kiyim" kategoriyasiga kiruvchi *libos*, *pirahan*, *burqa*, *qabo*, *etak* kabi so'zlar bilan ma'shuqaga xos ayollik sifatleri ifodalanadi.

Burqa'ni ko'tar, tengri uchun, el seni ko'rsun,

Bu husnu malohat yana qaysi kun uchundur (Lutfiy, "Ul zulfi tuzoqiki...")?

Burqa - parda, niqob, hijob¹⁹ bo'lib, tarixda musulmon ayollar yuzlarini parda bilan

¹⁸ Alimova G. Tarbiya jarayonida bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda rang psixologiyasi // TDPU Ilmiy axborotlari. Pedagogika, 2019/3(20). – B.50.

¹⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ФАН., 1983. –Б.338.

yopib yurganlar. Burqa' sharqona go'zallik belgilari bo'lgan ibo, hayo ramzi sifatida ongda kategoriyalashadi va ayolning ichki go'zalligini ifodalash uchun she'riyatda qo'llanilib kelgan.

Gastronomik leksemalar ham taktil belgi, ya'ni maza-ta'm ifodasi uchun faol birliklar sanaladi. Mumtoz adabiyotda ko'pincha *shakar, novvot, asal* gastronomiyalari, shuningdek, *nayshakar* fitonimi, ari, chivin zoonimlari vositasida shirinlik tushunchasi orqali go'zallik belgisi hosil qilinadi.

Labingdin chun suchuklik qand o'g'urlar,

Solurlar el ani suvga yalang'och (Lutfiy, "Qonimg'a kirmag'il...").

Baytning birinchi misrasida qandning shirinligi, ikkinchi misrasida uni choyga solib ichish tasviri berilgan. Lingvomadaniy tasavvurga ko'ra, "o'g'rilarni suvga yalang'och solish" jazosi "suchuklik o'g'irlagan qand"ga nisbatan qo'llanilishi badiiy tafakkur mahsuli sifatida anglanadi.

Navbatdagi baytda esa yor labiga tegib o'tgan sabo **yer** yuzini aylanib chiqsa, bahorda barcha **yerdan novvot-u** shakar o'sishi ma'lum qilinadi.

Qand labinga gar sabo teksayu o'tsa yer uza,

Bulg'ay u kun bahorda ul barcha nabotu nayshakar (Lutfiy, "G'amza o'qini gah-gah...").

Quyidagi misralarda so'zlayotgan qizning shakar og'zini ko'rgan misriy novvot xijolatdan suvga yotib, boshini yashirishi manzarasi tasvirlanadi.

So'zlashurda shakkar erningni ko'rub misriy nabot

Suvg'a yotib infiolindin yoshurdi boshni (Gadoiy, "Ey ko'ngul").

Baytda novvot choyga solinsa, uning erib ketish holati asosidagi tamsil keltiriladi. Yuqoridagi misollarda *qand, novvot, nayshakar* leksemalari orqali "go'zallik" konseptining periferiyalariga doir *yoqimlilik, rohatbaxshlik* semalari yuzaga keladi. Ba'zan mazmun ifodasini kuchaytirish uchun belgilarni ketma-ket keltirish holati ham uchraydi:

Joni xazin yuzung birla erningni sog'unib,

Savdoyilar bikin gulu shakkar havas qilur (Gadoiy, "Ko'nglim habib ila").

Qiyoslash strukturasi yuz bilan gul *qizillik, go'zallik, yoqimlilik, xushbo'ylik* belgilari orqali, ern (lab) bilan shakar *shirinlik va mazalilik* belgilari bilan assotsiatsiyalashadi. Bu misolda yuz va labning parallel holda gul va shakar bilan sifatlanishi *rang, hid, maza-ta'm* ifodasi yordamida yor xususiyatlarini ta'riflashga xizmat qiladi.

Shaxs otlari. G'azallarda *hindu, habash, shoh, gado, qul, raqib, tabib* singari shaxs otlarining go'zallik ifodalashda faol qo'llanilishi kuzatiladi.

Mumtoz adabiyotimizda *hindu, habash, lo'li* timsollaridagi qoralik belgisi asosida ma'shuqaning xoli, sochi tasvir ob'ektiga aylanadi.

Shakar og'zing qoshinda la'l konin

Menging hindulari saqlab turubtur (Atoyi, "Yuzing to pardadin").

Baytda uchta metaforik ifoda mavjud: *shakar og'iz, la'l koni, meng hindulari*.

Ular maza-ta'm, rang va funksiyaviy xususiyatiga ko'ra go'zallik ifodalashga yo'naltirilgan. Shakar - *shirinlik*, la'l – *qizillik*, hindu – *qoralik*, qo'riqlash – *vazifa*. Shoir ma'lum bir predmetlarni boshqasiga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish orqali o'zi nazarda tutgan axborotga ishora qiladi va bunda metaforik ma'no ifodasi namoyon bo'ladi. Ya'ni "bayon qilinayotgan propozitsional akt o'xshatish mazmunidan iborat bo'ladi va ana shu o'xshatish kuchlilik belgisi asosida yuzaga chiqib, bunda so'zlovchi maqsadi aks etadi"²⁰. Subyekt hindular (qora tanli qavmlar)dan tarixda, asosan, qul, xizmatkor sifatida foydalanilganligi haqidagi o'z idrokida mavjud ma'lumotga tayanadi. Xazina va konlarni habash qullar qo'riqlashi haqidagi milliy-etnik, ijtimoiy tartib-qoidalarning she'riyatga tatbiqi orqali yorning go'zal yuzi mubolag'ali tarzda tasvirlanadi. Demak, "belgi bildiruvchi leksemalar semantikasida olam manzarasining universal tasviri bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar bilan belgilanuvchi mental ifodasi ham namoyon bo'ladi. Universalialar dunyoni anglashning umuminsoniy parametrlari bilan belgilansa, mental xususiyatlar til sohiblarining etnik xususiyatlari, yashash tarzi, urf-odat, a'analari, milliy qadriyatlaridan kelib chiqib reallashadi"²¹. Shu sababli yuqoridagi misolda hindu (qora xol)ni la'l koni (lab)ni qo'riqlab turgan qulga qiyoslash orqali go'zal manzara ifodalanadi.

Habash, lo'li, hindu timsollari Sharq adabiyotida deyarli barcha shoirlar ijodida uchraydi. Ular, asosan, funksiyaviy yoki rang belgilari bilan konsept ifodasiga xizmat qiladi. Masalan:

*Agar Rum ahlina zulfung **habashning** lashkarin solsa,*

Ko'ngul ilginda ul soat topilmas hech amon, ey jon (Sakkokiy, "Bo'yungtek butmadi").

Yo tamosho qilg'ali, yo sehr ta'lim olg'ali,

*Zulfining **hindulari** har saridin qilmish g'ulu* (Navoiy)²².

"Lisoniy vositalar reprezentatsiyasi inson dunyoqarashi bilan bog'liq hodisa bo'lganligi uchun, unda munosabat ifodalanadi, ayni munosabat poetik matn yoki nutqda inson omili bilan uzviy bog'liq bo'lgan pragmatik xususiyatlardan tarkib topadi"²³.

²⁰ Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.101.

²¹ Кадирова Б.Р. Белги билдирувчи лексемаларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б.22.

²² http://navoi.natlib.uz:8101/uzb/xazoyin_ul_maoniy_beshinchi_tom/gazallar/gazallar_501_650/ Мурожаат санаси: 14.06.2021.

²³ Носирова У.И. Поэтик матнларнинг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Фарғона, 2021. – Б.78.

Mushk, *ipor, ufor, muskus* — hayvon yoki o'simliklarning o'tkir hidli moddasi...*M.dan parfyumeriya sanoatida foydalaniladi*²⁴. *Mushk* – qora tusli xushbo'y modda bo'lib, mushk-anbar sifatida ishlatiladi. Mushki nob esa mushkning eng asl va toza turi (muskus; mushki azfar, **mushki nob**, чистый мускус)²⁵. Mumtoz g'azallarda mushkning hidi va rangi asosida poetik tasvirlar hosil qilinadi.

Ey meglari mushku, engi lola, ko'zi ohu,

Zulfung g'amida tutti ko'ngulni qaro qayg'u (Atoyi, "Ey meglari mushku...").

Yuz qizilligi lolaga, ko'z shakli va rangi jihatdan ohuga qiyoslanadi. Yorning xoli, ko'zi va sochidagi qoralik oshiq ko'nglidagi qoralik bilan uyg'un idrok etiladi.

Z.Xolmanova qora leksemasining semantik taraqqiyotida ma'no kengayishi sodir bo'lganligini qayd etar ekan, **qora** I so'zining qadimgi turkiy tilda rang tushunchasidan tashqari ifodalagan "baxtiqora", "g'amgin"; "og'ir"; "yomon"; "ahmoq"; "odatiy", "oddiy", "past navli", "qo'pol"; "iflos"; "siyoh" singari ko'chma ma'nolarini keltiradi. **B.A.Bazimaning** qayd etishicha, qora rang *baxtsizlik, qayg'u, motam va o'limni* anglatadi. S.O'tanova ham bu rangning *motam, cheksizlik, qo'rquv, o'lim, mavhumlik* ramzi ekanligini qayd etadi²⁶.

To sabo zulfung nasimin Chin elinda yoygali,

Mushk savdosi kesildi shahri Chin attoridin (Atoyi, "Nechakim...").

Mazmuni: *Sabo soching hidini Chin elida yoygach, Xitoy attorlarida mushk savdosi to'xtadi*. Demak, yor sochining hidi mushki anbardan ham xushbo'yroq. Baytda endi mushkning rang belgisi ikkinchi darajaga tushirilib, hid belgisi asosiy o'ringa chiqariladi. "Go'zallik" konsepti maydoni tashkil etuvchilari bo'lgan *xushbo'y, yoqimli, rohatbaxsh* semalari verballashtiriladi. "Attor" (atir sotuvchi) leksemasiga tegishli "hid" semasi "mushk" va "zulf"ning *hid* belgisi bilan bir mazmuniy maydonda birlashadi.

Astronomik jism nomlari. Mumtoz she'riyatda belgi ifodalovchi birlik sifatida fazoviy jismlar - quyosh, oy, yulduzlar va sayyoralarning nomlari ham sermahsul qo'llanilgan. A.Abdurahmonovning fikricha, lirik asardagi nur bevosita nomlanish ekvivalentlari bilan yoki nur manbalari bo'lgan *quyosh, oy, yulduz* kabi obrazlar sifatida ham badiiy g'oyani ifodalaydi. Ulardan asosiy nur manbai bo'lgan quyoshning o'zbek she'riyatida e'tiqodiy doiradan real voqelikdagi ehtiyojlar xaloskori obrazi sifatida ijtimoiy-ma'naviy hayot doirasiga o'tganligi kuzatiladi. Shuningdek, badiiy obrazlilik jihatdan oy erkinlik elchisi – umid sifatida, yulduz obrazi keskin ijtimoiy-siyosiy muhitdagi ijodkorlarning etisha olmagan orzu, amalga oshmagan g'oyaviy

²⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент, 2000.

²⁵ https://www.lugatnoma.com/tj_ru. Мурожаат санаси: 04.09.2021.

²⁶ Қаранг: Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри(DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б.110.

niyatlarining ramziy in'ikosi sifatida talqin etiladi²⁷. Xalq lingvokulturologiyasida oy go'zallik va yorqinlik etaloni bo'lib, shoirlar ijodini usiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

M.Rahmatova “yuz tasvirlanganda o'zbek milliy madaniyatida uning *oq va tiniqligi, dumaloqligi* qadrlanadi: *oydek to'la yuz, oy yuzli*”²⁸, degan fikrni bildiradi. B.Jalilov fikricha, Sakkokiy, Lutfiylar yor yuzini oyga o'xshatmaydilar²⁹. Ammo bu fikrga qo'shilmaymiz. Chunki Sakkokiy ijodida ham, Lutfiy she'riyatida ham yor yuzi oyga qiyoslangan ifodalar mavjud.

Masalan,

Har kun manga yuz qatla gar oy ko'rinur,

O'yla sog'inur ko'zga magar soy ko'rinur (Lutfiy, “*Har kun manga yuz qatla*”), misralarida oy bilan yor yuzidagi ayrim sifatlar muqoyasa qilinadi. Oyga xos “*go'zallik*”, “*jozibadorlik*”, “*yiroqlik*” belgilari oshiqqa yorni eslatadi. Soy lug'aviy birligi suv manbasi sifatida nutq vaziyatidan kelib chiqib, “*ko'z yoshi*” bilan assotsiatsiyalashtiriladi. “Sog'ingan ko'zga soy ko'rinishi” sog'inchdan yig'lash (ko'z yoshi) holatiga tenglashtiriladi. Lutfiyning

Oytek yuzungni ko'rdi sharaf ichra oftob

Sendek jahonda dediki, zoti sharif yo'q (Lutfiy “*Ul siymtanki...*”),

baytida ham yorning yuzi morfologik belgi asosida oyga qiyoslanadi. Bunda ham “*go'zal*”, “*oq*”, “*qo'l etmas*” semalari o'xshatishga asos bo'lgan.

Sakkokiy g'azallarida ma'shuqa yuzini oyga qiyoslash bir necha o'rinlarda uchraydi. Masalan:

Oymudur yuzung, yoxud xurshidi tobon, ey sanam,

Bor aningdek shu'lasi ko'zlarni paykor ayladi (Sakkokiy, “*Gul yuzingni*”).

Atoyi g'azalida “qorong'u kecha” birikmasiga oy va cho'lpon (yulduz) dagi yorug'lik zidlanadi:

Qorong'u kechada qish jubba ichra

Yuzung oyu, ko'zung cho'lpon bo'lubdur (Atoyi, “*Yuzingdin ravzai rizvon bo'lubdur*”).

Miskin holatdagi oshiq ko'nglini yorning yuzi va ko'zi haqidagi nurli xayollar yoritganligi ma'lum. Shu o'rinda A.Abdurahmonovning yana bir fikrini keltirish o'rinlidir: “O'zbek she'riyatida nur – ma'naviy borliqda ham moddiy borliqdagi xususiyatlarga xos ezgulik, ma'rifat, mukammallikni ifodalaydi, lirik qahramonni zulmat qo'ynida g'ofil qolmaslikka undaydi. Uning ruhini uyg'otuvchi – saodatga eltuvchi najot timsolida namoyon bo'ladi”³⁰.

²⁷ Абдурахмонов А.А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвир: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.23.

²⁸ Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “Гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – Б.19.

²⁹ Жалилов Б. Диний-маърифий мавзуларнинг бадиий адабиётдаги талқини. – Тошкент, 2010. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-34857.html>. – Б.98.

³⁰ Абдурахмонов А.А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири: Филол.фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.23.

B.Jalilov fikricha, “ko‘pchilik shoirlar yor yuzini oyga o‘xshatsalar, ayrim shoirlar yor yuzini oyga o‘xshatmaydilar: oyning yuzida dog‘ bor. Bu dog‘ oyga hazrati Jabroil qanotini urganda, qanoti tekkan joy qorayib qolgan”³¹ emish. Mazkur *dog‘* detalidan yangi badiiy tasvir yaratishda mohirona foydalangan misralar ham uchrab turadi:

Qullaringdindur habashdin o‘lja tushgan to‘lun oy,

Tona olmas belguluk, chun yuzida tamg‘osi bor (Gadoiy, “*Ulki jannatdek*”).

Habash qoralik belgisi bilan tun ramzini ifodalaydi. Oy (o‘z ma‘nosida) mahbubaning habashdan olgan o‘ljasi, u buni inkor etolmaydi, chunki yuzida tamg‘asi bor. Baytni tushunish uchun qadimda qullarga tamg‘a bosish odati bo‘lganligidan xabardorlik talab etiladi va bu erda oy yuzidagi ana shunday tamg‘a iziga ishora bor. Mumtoz she‘riyatimizni pragmatik va lingvokulturologik yondashuvsiz tahlil qilish mushkul. Bayt matnidan, *modomiki, oy ham yorga qul ekan, demak, uning o‘zi go‘zallikda tengsiz*, degan mazmun kelib chiqadi.

O‘xshash tasvirni Atoyi ijodida ham ko‘rish mumkin:

Gar boshi ko‘kka etar, oy bir habash quldur sanga,

Har kishi tuymas muning, ush yuzida bilgulari. (Atoyi, “*Ey ko‘zung saydi*”)

“Ya‘ni oy har qancha yuksakda bo‘lmasin, sening bir qora quling. Buni har kim sezmasa-da, uning yuzidagi qora dog‘laridan belgilidir, deb kinoya qiladi shoir”³². Bu o‘rinda “boshi ko‘kka etmoq” frazemasi orqali “kibrlanish” ma‘nosi berilsa, ikkinchi tomondan, oyning ko‘kda ekanligiga ishora ham bor.

M.Rahmatovanning fikricha, “...go‘zallik” konsepti leksik-semantik maydonidagi leksik birliklar ishtirok etmasa-da, go‘zallik milliy-madaniy maydoniga tegishli estetik qadriyatli rang obrazlari orqali ham ifodalanadi. Inson ko‘rish sezgisi orqali ranglarni farqlay oladi, ularni farqlash inson ongining bilish jarayoni bo‘lsa, uni his qilish estetik jihatdan qadrlashdir³³.

Harfiy san‘atlar. G‘azallarda ma‘shuqa yuzi, ko‘zi, qoshi, qomati, shaklu shamoyilini ta‘riflashda arabiy haflardan foydalanish an‘anasi ham mavjud. Bunda qomat “alif”ga, qosh “nun”ga, soch “jim”ga qiyoslanadi:

“Jim” zulfing, “nun” qoshing qasdi jon aylab edi,

Boqi bo‘lsin, lutf etib kirdi “alif” qadding aro (Atoyi, “*Mujda berdi*”).

Ya‘ni: “Soching jingalagi(“jim”) va qoshing qayrilmasi (“nun”) jonimga qasd qilgan edi, tik (“alif”) qadding rahmi kelib (lutf etib) jonimni asrab qoldi (boqiy qildi)”. Bu misolda “jim” va “nun” orasiga “alif” kirib, “jon”(جان) so‘zi hosil qilinishi borasidagi ifodani ko‘rish mumkin.

Jon dedi oni Lutfiy yiroqtin chu ko‘rundi,

³¹ Жалилов Б. Диний-маърифий мавзуларнинг бадий адабиётдаги талқини. – Тошкент, 2010.

<http://uz.denemetr.com/docs/768/index-34857.html>. – Б.98.

³² Сайфиддин Сайфуллох, Девони Шайхзода Атоийи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.16.

³³ Раҳматова М.М. Гўзаллик концептининг бадий матнларда воқеланиши ва унинг концептуал таҳлили // БухДУ илмий ахбороти, 2019/2(74). – Б.104.

“**Jim**” sochi, “**alif**” qadi bila ul qoshi “**nun**”i (Lutfiy, “Ey zulfi tun o‘g‘risiyu...”)) baytida ham *jim* shakl jihatdan soch gajagiga, *alif* tik va to‘g‘riligi bilan yor qaddiga, *nun* yarim oy shaklidagi qoshga qiyoslanadi.

Poetik matnlarda harfiy nuqta ham qiyosda yor ta‘rifiga xizmat qiladi:

Harflar ichra “mim” ning nuqtasi chunki hech yo‘q,

Hayrat ichinda men o‘shul og‘zi qoshinda xolidin (Lutfiy, “Garchi yiroq tushmisham”). Shoir deydi, “aslida harflar ichida *mim* (م) ning nuqtasi yo‘q bo‘lishi kerak. Lekin og‘zi oldidagi nuqtadan hayratdaman”. Bu o‘rinda “mim” harfi shaklan og‘izga, uning oldidagi xol nuqtaga qiyoslanadi. Ma‘shuqa go‘zalligini ifodalashda inson tana a‘zolari arab alifbosi harflariga shaklan qiyoslash vositasida tasvir yaratish ijodkordan katta mahorat va tasavvur boyligini talab qiladi.

Mumtoz adabiyotda **kamon**, **o‘q-yoy** leksemalaridan ham qosh va kipriklar ta‘rifida unumli foydalaniladi. Chunonchi:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,

Ko‘ngluma har birining dardi balosinmu deyin?! (Navoiy).

Iydi akbardur muborak umri jovidon bila,

Gar qoshing yosi uchun bo‘lg‘il desang qurbon manga (Atoyi, “Ey g‘amu darding”).

Qoshning yoy shaklida bo‘lishi mumtoz shoirlar tasavvurida go‘zallik etaloni hisoblangan. Hozirgi kunda arxaik so‘zga aylangan yoy leksemasi o‘z davrida faol iste‘molda bo‘lgan. Ushbu baytda tasvirga yoyning funksional vazifasi ham qo‘shilib, ifoda kuchaytiriladi:

G‘amzang qachonki qoshi yosidin novake otar,

Xokiylaring ichinda meni o‘q nishon qilur (Gadoiy, “Har bir qiyo boqorda”).

Bu misolda yor g‘amzasi – novak (o‘q) otuvchi o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lsa, quyida novakning funksiyasi kiprikka yuklatiladi:

Kirpiking novak o‘qin bag‘rimg‘a urub har zamon,

Fitna birla qoshlaring ko‘nglimni maftun ayladi (Sakkokiy, “Ko‘zlarinigiz”).

Kamon o‘qining uchidagi patsimon qismi boshog‘ shaklida bo‘lishi bu o‘rinda qiyosning o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etmoqda:

Jonim hadafti ichra o‘q urmas erur ul xayf,

Nogah erigay bag‘rim o‘ti ichra boshog‘i (Sakkokiy, “Kuydurdi ko‘ngul”).

Mazmuni: “Jonimning nishoniga otilgan o‘q xayf bo‘ladi, chunki bag‘rimdagi o‘tdan uning boshog‘i erib ketadi”.

O‘xshash ifoda Gadoiy g‘azallarida ham uchraydi:

Qoshi yosindin xadangi g‘mzakim otdi ko‘zung,

Garchi o‘tdi jondin, ammo qoldi bag‘rimda boshog‘i (Gadoiy, “Kelgin ey dilbarkim”). Bayt mazmuni quyidagicha: “Ko‘zing qoshingning yoyidan g‘amza o‘qini otgan edi, jonimdan o‘tib ketdiyu, bag‘rimda boshog‘i qoldi”.

Gadoiyning quyidagi baytida go'zallik *shakl* va *xususiyat* jihatdan verballashuvini ko'rish mumkin:

Kipriklaringni ko'rgali oshiq niyoz ila

Jonig'a tig'i novaku xanjar havas qilur (Gadoiy, "Ko'nglum habib ila").

Kiprik bilan novak(kamon o'qi) va xanjar o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar – *uzunlik* va *uchlilik* belgilari shoir tafakkurida assotsiatsiyalashadi, tashqi o'xshashlikdan tashqari, novak va xanjar leksemalariga tegishli "uchli", "o'tkir" semalari asosida voqelangan "jon olish", "jarohatlash" vazifasini ham shoir kiprikka yuklaydi. Baytdan "oshiqlar kipriklaringni ko'rish uchun joniga tig' sanchilishini orzu qiladi" degan mazmun kelib chiqadi.

Poetik ifodalarda ma'shuqaning ilohiyligi va benihoyat nozik xilqatligini ifodalashning o'ziga xos reprezentatsiyalari mavjud.

Gahi, ki bossa ayog'in yuzimga, noz ila der:

"Ayog'im og'ridi, ne buriyo emushtuksen!" (Atoyi, "Seni men angladim").

Oshiq yuziga oyoq bosgan yorning oyog'i og'rishi va bundan shikoyat qilishi manzarasi go'zallikning "nafis" va "nozik" semalarini voqelantiradi. Lutfiyning quyidagi baytida esa xuddi shu holat boshqacharoq tarzda ifoda topadi:

Qadam bos ko'z uza kirpukka boqmay,

Tikan botmas ayoqqa, bo'lsa namnok ("Boshimg'a soya sol").

Oshiq ma'shuqani avaylab, kiprik ustiga emas, ko'zlari ustiga (nam joyga) oyoq bosishini maslahat berar ekan, nam joyda oyoqqa tikan botmasligini ta'kidlaydi.

Navbatdagi baytda kiprik umuman boshqa bir metaforik talqinda keladi va unda bir maydonda birlashuvchi leksemalar orasidagi semantik aloqa muhim ahamiyatga ega.

Ko'zlarim daryosidin har dam xayoling kechgali

Kirpikimning xaslarindin bog'lamishmen solni (Atoyi, "Ey maning qasdimg'a").

Misolda kipriklarni xasga qiyoslashda assotsiatsiyalashtiruvchi *ingichka*, *qattiq*, *egiluvchan* semalari namoyon bo'ladi. *Daryo*, *kechmoq*, *xas*, *sol* leksemalari guruhi bilan *ko'z*, *xayol(chan)*, *kiprik* leksemalari guruhini bog'lab turuvchi *suv*, *gorizontal* *harakat* semalari orqali metaforik ifoda verballashadi. Natijada, yor xayoli hamisha ko'z oldida bo'lishi haqidagi oshiq orzusi anglashiladi.

"Go'zallik - bu insonga estetik zavq bag'ishlovchi, ko'rish, eshitish, hid yoki teginishga ta'sir qiluvchi, shuningdek, ichki tajribalarni keltirib chiqaradigan, atrofdagi voqelikning narsa va hodisalariga eng yuqori estetik bahodir"³⁴. Mumtoz she'riyatda **maza-ta'm** belgisi asosan, shakar, novvot, asal, shakarqamish leksemalari orqali verballashtiriladi:

Shakar erning xijlatindin shishag'a kirmish nabot,

³⁴ Бегович И.С. Аксиологические особенности концепта "Красота" в британской и немецкой лингвокультурах // Наука, техника и образование, 2017.- №5(35). - С.54.

Shayalillahkim, ajab shirin dahonsen, ey habib (Gadoiy, “*Dilraboliq fanida*”). Gadoiy baytida yor labining shirinligidan xijolat bo‘lgan novvotning shisha ichiga kirib ketishi bilan bog‘liq hodisa orqali labning shirinlik darajasi bo‘rttirib tasvirlanadi. Baytda ko‘chirilgan belgilar “*shirin*”lik va “*shaffof*”likdir. Bu ifodada novvot bilan shisha ko‘rinishiga xos shaffoflikning tafakkurda assotsiatsiyalashuvi natijasida badiiy tasvir ifoda topadi.

Sharqona “go‘zallik” konseptining verballashuvida turli xil belgi bildiruvchi birliklarning salmog‘i katta. Ular sharq xalqlarining o‘ziga xos etnik xususiyatlari, milliy madaniyati va estetik baholarini o‘zida aks ettiradi. I.Tarasovanning yozishicha, “D.S.Lixachyov tomonidan millatning mental olamini belgilash uchun taklif etilgan “konseptosfera” atamasi tilning lug‘at tarkibida namoyon bo‘ladi va undan kognitiv poetika bo‘yicha tadqiqotlarda muayyan tildagi konseptlar tizimi tabiati va undan so‘z ustasining lisoniy shaxsiyati uchun foydalaniladi. Shunday ekan, konseptosferaga nisbatan “olamning induvidual modeli”, “olamning konseptual manzarasi”, “adibning konseptual tizimi” iboralarini qo‘llash to‘g‘ri bo‘ladi”³⁵. Keltirilgan misollarda olamning konseptual manzarasi o‘ziga xos tarzda aks etgan bo‘lib, ularda ijodkor badiiy tafakkurining konseptual tizimi yorqin namoyon bo‘lib turadi.

Badiiy matnlardagi go‘zallik ifodasida an‘anaviy andozalardan tashqari individual baho mezonlari ham mavjudki, ular muallif xayoloti va emotsional baho darajasi haqida tasavvur beradi. Atoyining “Ul sanamkim” deb boshlanuvchi mashhur g‘azalidagi

*Ul ilikkim, suvdin oriqdur, yuvmas oni suda,
Balki suvni pok bo‘lsun deb, iligi birla yur,*

baytida keltirilgan fikrni shular jumlasiga kiritish mumkin. Baytda “suvni qo‘llari bilan poklayotgan sanam” timsoli orqali go‘zallikning “poklik” semasi reallashadi. Shuningdek, Atoyining:

*O‘shal yuzu og‘iz bemorliqda
Inoyatlar qilur gulqand bizga* (“Umidi vasldur”),

baytida yuz bilan og‘izni an‘anaviy tarzda *gul* bilan *shakar* deyish o‘rniga *gulqand* qo‘shma oti bilan ifodalanishini ham go‘zallik tasvirida o‘ziga xoslik, yangi nom (metafora) sifatida baholash mumkin.

Sakkokiy ijodida ham shu kabi okkazional tasvirlar ko‘plab uchraydi.

*Kishi erningnikim ko‘rdi, tanib ul la‘l marjoni,
O‘zi sarrof bo‘ldi, ul iki ko‘zni do‘kon qildi* (“Azalda surating”).

“Yor og‘ziga qaragan odam sarrofga, uning ikki ko‘zi do‘konga aylanishi” an‘anaviy tasvirlar orasida uchramaydi.. Og‘izga boqqan kishining ko‘zida la‘l (qizil lab) va marjon (oppoq tishlar) aks etadi. Sarrof qadimda “kishilarning yirik [pullarini](#) maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashlab berib foyda

³⁵ Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте (На материале поэзии Г.Иванова и И.Анненского). Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Саратов, 2004. – С.10.

ko'ruvchi shaxs³⁶ bo'lgan. Sakkokiy yana bir g'azalida ijtimoiy tartib-qoidalar bilan bog'liq odatni poetikaga ko'chirib, chiroyli holatni beradi:

*Eltti og'zingdin o'g'urlab pista torliqni anga,
Tuz suvin quydilar oncha, ondin iqror ayladi* (“Gul yuzungni”).

Ya'ni, pista torlik(kichkinalik)ni yor og'zidan o'g'irlagani uchun unga tuzli suv quydilar va u aybiga iqror bo'ldi. Qadimda o'g'rilarni qamchilab, jarohatiga tuz sepish jazosini qo'llash orqali aybiga iqror qilingan. Pistani tuzli suv sepib qovurish jarayonida yumuq og'zi ochilib ketish hodisasini “iqrorlik” sifatida baholaydi.

Lutfiy she'rlarida ham o'ziga xos okkazional ifodalar mavjud. Masalan:

*Chun tishlasa irning ko'runur, shevasi shirin,
Sut birla chun shakkar qotilur, yaxshi ko'runur* (“Har necha yamonliqki”).

Baytda tish an'anaviy tarzda sadaf yoki marjonga emas, sutga qiyoslanadi. Lab shirinligi va tishning oqligi belgilari faollashtiriladi. Sut bilan shakarning qorishuvidan hosil bo'lgan maza yor so'zining shirinligiga sabab qilib ko'rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, go'zallik tushunchasi milliy xarkterga ega bo'lib, muayyan xalqning estetik qarashlari, milliy madaniyati uning badiiy asarlarida aks etadi. O'zbek mumtoz badiiy matnlarida ayol ta'rif-tavsifi orqali talqin etilgan go'zallik mezonlari xalqimizning taxayyul olami cheksizligi, so'z va tasavvurining boyligi, yuksak didi va ma'naviy olamining go'zallikka moyilligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегович И.С. Аксиологические осбенности концепта “Красота” в британской и немеской лингвокультурах // Наука, техника и образование, 2017.- №5(35). – С.54.
2. Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте (На материале поэзии Г.Иванова и И.Анненского). Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Саратов, 2004. – С.10.
3. Сборошенко К.В. Метафорическая репрезентация концепта «Красота» в современной поэзии: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филол. наук. – Челябинск, 2009. – С.17.
4. Abdurahmonov A.A. O'zbek she'riyatida nur, rang va ruhiyat tasviri: Filol.fan. bo'y. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. – B.23.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.43.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. – B. 60.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.101.

³⁶ <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Sarrof&variant=uz-cyrl>.

8. Kadirova B.R. Belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo'y. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B.22.
9. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B.59.
10. Rahmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "Go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. bo'y. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2019. – B.19.
11. Jalilov B. Diniy-ma'rifiy mavzularning badiiy adabiyotdagi talqini. – Toshkent, 2010.
12. Yuldashev A.G. Ko'chma ma'noli so'zlarda kognitiv mexanizmlarning o'rni // "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal journal.fledu.uz., № 3/2019. – B.58.
13. Nazarova D. Belgi bildiruvchi leksemalarning aksiologik xususiyatlariga doir // Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar. Onlayn xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Andijon, 2020.
14. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 2010. – B.94.
15. Maxmaraimova Sh.T. "Inson" konsepti va uning muallif realiyasidagi ifodasi. "Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar" mavzusidagi ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Andijon, 2020. – B.7.
16. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik. 3-j. – Toshkent: FAN, 1983. – B.75
17. Sayfiddin Sayfulloh. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.16.
18. Umarova N.R. Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Farg'ona, 2021. – B.110.
19. Nosirova U.I. Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'y. fals. d-ri (PhD) diss. – Farg'ona, 2021. – B.78.
20. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.